

Date: 5th August-2026

NUTQ ODOBI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QIYOSIY-TAQQOSLASH TAHLILI

Rashidova Nodira Murodovna

Toshkent Davlat Agrar Universiteti "Xorijiy tillar" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi nutq odobi normalari qiyosiy-taqqoslash usulida tahlil qilinadi. Maqolada ikkala til madaniyatida salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish va kechirim so'rash kabi nutq odobi formulalarining lingvistik va pragmatik xususiyatlari batafsil yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek nutq odobida ierarxiya, yosh farqi va ijtimoiy mavqe omillari hal qiluvchi rol o'ynasa, ingliz nutq odobida individualizm va bevosita muloqot tamoyillari ustuvorlik qiladi. Maqola tilshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va pragmatika sohasidagi tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: nutq odobi, lingvistik odob, qiyosiy tilshunoslik, pragmatika, madaniyatlararo kommunikatsiya, o'zbek tili, ingliz tili.

Abstract: This scientific article provides a comparative analysis of speech etiquette norms in Uzbek and English languages. The article examines in detail the linguistic and pragmatic features of speech etiquette formulas such as greeting, parting, expressing gratitude, making requests, and apologizing in both linguistic cultures. The research results demonstrate that while hierarchy, age difference, and social status factors play a decisive role in Uzbek speech etiquette, the principles of individualism and direct communication prevail in English speech etiquette. The article is intended for researchers in the fields of linguistics, intercultural communication, and pragmatics.

Keywords: speech etiquette, linguistic politeness, comparative linguistics, pragmatics, intercultural communication, Uzbek language, English language.

Kirish.

Nutq odobi insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy va muhim madaniy hodisalaridan biri hisoblanadi. Har bir til o'ziga xos nutq odobi tizimiga ega bo'lib, bu tizim o'sha til so'zlovchilarining dunyoqarashi, qadriyatlarini, ijtimoiy munosabatlari va madaniy an'analarini aks ettiradi. Nutq odobi shunchaki so'z birikmalari yig'indisi emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy normalarning til orqali namoyon bo'lishidir.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi muloqot tobora kuchayib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi faolligi, ta'lim va fan sohasidagi xalqaro hamkorlik ingliz tili bilan o'zaro ta'sirni kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda o'zbek va ingliz nutq odobi normalarini qiyosiy o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Ushbu maqolaning maqsadi o'zbek va ingliz tillaridagi nutq odobi formulalarini qiyosiy-taqqoslash usulida tahlil qilish, ularning o'xshashlik va farqlarini aniqlash, hamda madaniy omillarning nutq odobiga ta'sirini ochib berishdan iborat.

Date: 5th August-2026

Tadqiqot materiali sifatida o'zbek adabiy tili lug'atlari, ingliz tili frazeologik lug'atlari, badiiy asarlar, kundalik muloqot namunalari va ilmiy adabiyotlar xizmat qiladi.

Nutq odobi tushunchasi tilshunoslik fanida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol o'rganila boshlandi. Rus tilshunosi N.I. Formanovskaya nutq odobini "muloqot jarayonida suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, jamiyat tomonidan qabul qilingan va til vositalari orqali ifodalanadigan barqaror formulalar tizimi" deb ta'riflaydi [1].

Ingliz tilshunosligida esa nutq odobi tushunchasi ko'proq "politeness" (odob, nazokat) atamasi orqali ifodalanadi. P. Brown va S. Levinsooning "yuz" (face) nazariyasiga ko'ra, har bir inson ijtimoiy muloqotda o'zining "ijobiy yuzi" (positive face) va "salbiy yuzi" (negative face) ni saqlashga intiladi. Ijobiy yuz insonning boshqalar tomonidan qabul qilinish va maqtanish istagini, salbiy yuz esa erkinlik va mustaqillik istagini ifodalaydi [2].

O'zbek nutq odobi tizimida "hurmat" tushunchasi markaziy o'rin egallaydi. Bu tushuncha yosh kattalarga hurmat, ijtimoiy mavqega e'tibor, oilaviy ierarxiyaga rioya qilish kabi qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Ingliz nutq odobida esa "individual space" (shaxsiy makon) va "privacy" (shaxsiy hayot daxlsizligi) tushunchalari asosiy o'rin tutadi.

Nutq odobi formulalarini quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

Salomlashish formulalari

Xayrlashish formulalari

Minnatdorchilik bildirish formulalari

Iltilos qilish formulalari

Kechirim so'rash formulalari

Tabriklash formulalari

Hamdardlik bildirish formulalari

Har bir guruh o'z ichida rasmiy va norasmiy, og'zaki va yozma variantlarga bo'linadi.

O'zbek tilida salomlashish formulalari juda xilma-xil bo'lib, ular suhbatdoshning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei va yaqinlik darajasiga qarab tanlanadi. Eng keng tarqalgan salomlashish formulalari quyidagilardir:

Rasmiy salomlashish: "Assalomu alaykum", "Xayrli kun", "Xayrli tong", "Xayrli oqshom".

Norasmiy salomlashish: "Salom", "Qalaysiz?", "Ishlar qalay?", "Sog'lom misiz?"

O'zbek madaniyatida yosh kattalarga murojaat qilishda "Assalomu alaykum" formulasi majburiy hisoblanadi. Bu formula faqat salomlashish vositasi emas, balki hurmat va ehtirom belgisi sifatida qabul qilinadi. Kichik yoshdagi shaxs kattaga birinchi bo'lib salom berishi o'zbek odobining asosiy talablaridan biridir.

Ingliz tilida salomlashish formulalari nisbatan soddaroq va kamroq ierarxik xarakterga ega:

Rasmiy: "Good morning", "Good afternoon", "Good evening", "How do you do?"

Norasmiy: "Hello", "Hi", "Hey", "What's up?", "How's it going?"



Date: 5th August-2026

Ingliz salomlashishida yosh farqi deyarli rol o'ynamaydi. Professor ham, talaba ham bir-biriga "Hello" yoki "Hi" deb murojaat qilishi mumkin. Bu ingliz madaniyatidagi egalitarizm tamoyilining til ko'rinishidir [3].

O'zbek tilida xayrlashish formulalari ham salomlashish kabi ierarxik xarakterga ega. Katta yoshdagi shaxsga "Xayr, omon bo'ling", "Oq yo'l", "Sog' bo'ling" deb xayrlashiladi. Do'stlar orasida "Ko'rishguncha", "Ketdik", "Yaxshi qoling" kabi formulalar ishlatiladi.

O'zbek xayrlashishining o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'pincha xayrlashish jarayoni bir necha marta takrorlanadi. Mehmon uydan chiqayotganda, mezbon uni eshikkacha kuzatib boradi va bir necha marta xayrlashish so'zlarini aytadi. Bu "kuzatish" an'anasi o'zbek mehmondostligining ajralmas qismidir.

Ingliz tilida xayrlashish ancha qisqa va rasmiy xarakterga ega: "Goodbye", "Bye", "See you later", "Take care", "Have a nice day". Ingliz madaniyatida mehmonni eshikkacha kuzatish odati unchalik keng tarqalgan emas va bu shaxsiy makonga aralashish sifatida qabul qilinishi mumkin.

O'zbek tilida minnatdorchilik bildirish formulalari juda boy va xilma-xildir. Eng keng tarqalgan formulalar: "Rahmat", "Katta rahmat", "Juda katta rahmat", "Tashakkur", "Sizdan juda minnatdorman", "Sizga katta rahmat aytaman".

O'zbek madaniyatida minnatdorchilik bildirish ko'pincha takroriy xarakterga ega. Bir kishiga bir necha marta rahmat aytish odatiy hol hisoblanadi. Bundan tashqari, minnatdorchilik bildirishda "Sizning sabringiz uchun", "Sizning vaqtingizni ajratganingiz uchun" kabi tushuntirishlar qo'shiladi.

O'zbek nutq odobining muhim xususiyati shundaki, minnatdorchilikka javob berishda "Arzimaydi", "Hech gap yo'q", "Siz uchun jon deb" kabi kamtarlik formulalari ishlatiladi. Bu javoblar orqali suhbatdosh o'zining qilgan yaxshiligini kichraytirib ko'rsatishga intiladi.

Ingliz tilida minnatdorchilik bildirish: "Thank you", "Thanks a lot", "I really appreciate it", "I'm grateful to you", "That's very kind of you". Javob sifatida: "You're welcome", "Not at all", "Don't mention it", "My pleasure" [4].

Ingliz minnatdorchilik formulasining o'ziga xos jihati shundaki, u ko'pincha juda aniq va konkret xarakterga ega. "Thank you for helping me with my homework" kabi formulada minnatdorchilikning sababi aniq ko'rsatiladi. O'zbek tilida esa minnatdorchilik ko'proq umumiy va hissiy xarakterga ega.

O'zbek tilida iltimos qilish formulalari ierarxik tuzilmaga ega. Katta yoshdagi yoki yuqori mavqedagi shaxsga iltimos qilishda juda ko'p hurmat so'zlari ishlatiladi: "Iltimos, agar Sizga qiyin bo'lmasa...", "Sizdan juda iltimos qilaman...", "Agar imkoningiz bo'lsa...".

O'zbek madaniyatida bevosita iltimos qilish ba'zan qo'pollik sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuning uchun iltimos ko'pincha bilvosita shaklda ifodalanadi: "Sizga bir ish tushib qolibdi..." yoki "Agar vaqtingiz bo'lsa, bir narsa so'ramoqchi edim...".

Ingliz tilida iltimos qilish: "Could you please...", "Would you mind...", "I was wondering if you could...", "I'd appreciate it if you could...". Ingliz tilida ham bilvosita iltimos formulalari mavjud, ammo ular o'zbek tilidagidek ierarxik emas, balki vaziyatning rasmiyligiga bog'liq [5].



Date: 5th August-2026

O'zbek tilida kechirim so'rash formulalari: "Kechirasiz", "Uzr so'rayman", "Kechiring, iltimos", "Uzr, sizni xafa qildim", "Mening aybim, kechirasiz".

O'zbek madaniyatida kechirim so'rashda o'z aybini bo'yniga olish va o'zini kichraytirish muhim rol o'ynaydi. "Mening aybim", "Mening xatoim" kabi iboralar kechirim so'rashning ajralmas qismidir. Katta yoshdagi shaxsdan kechirim so'rashda esa formulalar yanada rasmiy va hurmatli bo'ladi.

Ingliz tilida kechirim so'rash: "I'm sorry", "I apologize", "Please forgive me", "I beg your pardon", "My apologies". Ingliz kechirim so'rash formulasida o'z aybini tan olish darajasi vaziyatga bog'liq. Kichik noqulayliklar uchun oddiy "Sorry" yetarli bo'lsa, jiddiy xatolar uchun "I deeply apologize" kabi rasmiy formulalar ishlatiladi.

O'zbek tilida hamdardlik bildirish formulalari juda hissiy va chuqur mazmunli: "Sizga hamdardman", "Og'ir yo'qotish bo'ldi, sabr qiling", "Allohdan sabr tilayman", "Sizning qayg'uingiz bizning qayg'umuz". O'zbek madaniyatida qayg'u paytida yaqinlar va qo'shnilar birgalikda bo'lishi, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishi an'ana hisoblanadi.

Ingliz tilida hamdardlik bildirish: "I'm sorry for your loss", "My condolences", "My thoughts are with you", "I'm here for you". Ingliz hamdardlik formulalari nisbatan qisqa va shaxsiy makonga hurmat tamoyiliga asoslanadi [6].

O'zbek va ingliz nutq odobi o'rtasidagi farqlar asosan quyidagi madaniy omillar bilan izohlanadi:

Birinchidan, kollektivism va individualizm. O'zbek jamiyati an'anaviy ravishda kollektivistik xarakterga ega. Bu nutq odobida guruh manfaatlarini shaxsiy manfaatlar ustiga qo'yish, kattalarga hurmat, jamoatchilik fikriga e'tibor berish shaklida namoyon bo'ladi. Ingliz jamiyati esa individualistik xarakterga ega bo'lib, nutq odobida shaxsiy erkinlik, mustaqillik va shaxsiy chegaralarga hurmat ustuvorlik qiladi.

Ikkinchidan, ierarxiya va egalitarizm. O'zbek nutq odobida yosh, jins, ijtimoiy mavqe va qarindoshlik darajasi katta ahamiyatga ega. "Siz" va "sen" olmoshlarining qo'llanilishi, turli xil hurmat formulalari ierarxik munosabatlarni aks ettiradi. Ingliz tilida esa "you" olmoshi barcha vaziyatlarda qo'llaniladi va bu egalitar tamoyilning til ko'rinishidir.

Uchinchidan, bevosita va bilvosita kommunikatsiya. O'zbek madaniyatida to'g'ridan-to'g'ri rad etish yoki tanqid qilish qo'pollik hisoblanadi. Shuning uchun rad etish va tanqid ko'pincha bilvosita, yumshoq shaklda ifodalanadi. Ingliz madaniyatida esa aniqlik va to'g'ridan-to'g'rilik qadrlanadi, ammo bu ham ma'lum bir odob doirasida amalga oshiriladi.

To'rtinchidan, mehmondo'stlik an'analari. O'zbek madaniyatida mehmondo'stlik nutq odobining muhim qismini tashkil etadi. Mehmonni kutib olish, dasturxonga taklif qilish, kuzatib qo'yish kabi jarayonlar maxsus nutq formulalari bilan hamrohlanadi. Ingliz madaniyatida mehmondo'stlik mavjud, ammo u kamroq rasmiy va ko'proq shaxsiy xarakterga ega.

Zamonaviy globallashuv va raqamli kommunikatsiya davrida o'zbek va ingliz nutq odobi normalari ma'lum o'zgarishlarga duch kelmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta va messenjerlar orqali muloqot nutq odobi formulalarining soddalashuviga olib kelmoqda.



Date: 5th August-2026

O'zbek yoshlari orasida ingliz tilidagi salomlashish va xayrlashish formulalari ("Hi", "Bye", "Thanks") tobora keng tarqalmoqda. Bu holat til aralashuvi (code-switching) hodisasining bir ko'rinishi bo'lib, ayniqsa shahar yoshlari orasida kuzatiladi.

Shu bilan birga, rasmiy va an'anaviy vaziyatlarda o'zbek nutq odobining klassik formulalari o'z kuchini saqlab qolmoqda. Davlat idoralarida, ta'lim muassasalarida va oilaviy marosimlarda an'anaviy nutq odobi normalari qat'iy rioya qilinadi.

Ingliz nutq odobida ham zamonaviy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Gender neytral formulalar, inkluziv til va madaniy xilma-xillikka hurmat kabi tendensiyalar nutq odobi normalarini boyitmoqda.

XULOSA

O'zbek va ingliz tillaridagi nutq odobini qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, o'zbek nutq odobi ierarxik, kollektivistik va hissiy xarakterga ega bo'lib, unda yosh, ijtimoiy mavqe va qarindoshlik munosabatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ingliz nutq odobi esa egalitar, individualistik va pragmatik xarakterga ega.

Ikkinchidan, ikkala tilda ham nutq odobi formulalari rasmiy va norasmiy variantlarga ega, ammo bu variantlarning qo'llanilish doirasi va shartlari turlicha.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida ikkala til nutq odobi ham ma'lum o'zgarishlarga duch kelmoqda, ammo asosiy madaniy qadriyatlar va an'analar saqlanib qolmoqda.

To'rtinchidan, madaniyatlararo kommunikatsiyada nutq odobi farqlarini bilish muvaffaqiyatli muloqotning zaruriy sharti hisoblanadi. O'zbek va ingliz nutq odobi normalarini chuqur tushunish til o'rganish, tarjima va xalqaro muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Beshinchidan, nutq odobi statik hodisa emas, balki jamiyat rivoji bilan birga o'zgarib boradigan dinamik tizimdir. Shuning uchun bu sohadagi tadqiqotlar doimiy ravishda davom ettirilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Formanovskaya N.I. Rechevoy etiket i kultura obshcheniya. M.: Znanie, 1989. 160 s.
2. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. 345 p.
3. Krysin L.P. Russkoe slovo v kontekste sovremennoy kommunikatsii. M.: Yazyki slavyanskoy kultury, 2004. 288 s.
4. Leech G.N. The Pragmatics of Politeness. Oxford: Oxford University Press, 2014. 392 p.
5. Abdullayev A.A. O'zbek tili pragmatikasi: nutq odobi va kommunikativ strategiyalar. Toshkent: Fan, 2019. 256 b.
6. Watts R.J. Politeness. Cambridge: Cambridge University Press, 2003. 312 p.

